



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING QARORI

2024 yil 15 may

№ 1903

### Sudyalar odobi kodeksini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq

#### QAROR QILADI:

1. Sudyalar odobi kodeksi ilovaga muvofiq yangi tahrirda tasdiqlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining 2018 yil 29 yanvardagi SOKQ-490-III-sonli hamda 2021 yil 19 noyabrdagi 1642-sonli qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Sudyalar oliv malaka hay'ati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyalari malaka hay'atlari sudyalarga ushbu yangi tahrirda tasdiqlangan kodeksning mazmun va mohiyatini tushuntirish ishlarini olib borsin.
4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

*O'zbekiston Respublikasi  
Sudyalar oliv kengashining  
2024 yil 15 maydagi 1903-sod qarori  
bilan tasdiqlangan*

## **SUDYALAR ODOBI KODEKSI**

O'zbekiston Respublikasi sudyalar hamjamiyati:

inson huquq va erkinliklarini sud orqali ishonchli himoya qilishga sudyalarning mustaqilligi va xolisligini ta'minlash orqali erishilishini ta'kidlab;

odil sudlovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari talablariga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshirilishida, shuningdek jamiyatning sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini ta'minlashda sudyaning odobi, yuksak madaniyati va ma'naviyati muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etib;

sud hokimiyatining obro'yini va nufuzini saqlash sudyaning majburiyati ekanligini uqtirgan holda odob-axloq qoidalarini belgilovchi mazkur Kodeksni qabul qiladi.

### **1-modda. Kodeksning amal qilish doirasi**

Kodeks suda uchun odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq kasbiy faoliyatida, shuningdek xizmatdan tashqari vaqtda amal qilishi lozim bo'lgan odob-axloq, xulq-atvor qoidalarini belgilaydi va undagi qoidalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining cheklanishi deb talqin etilmasligi kerak.

Kodeks bilan tartibga solinmagan masalalar yuzaga kelgan taqdirda, sudyalar jamiyatda mavjud bo'lgan odob-axloq me'yorlariga, shuningdek sudyalar odob-axloqini tartibga soluvchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga amal qiladilar.

### **2-modda. Sudyaning xulq-atvoriga doir umumiy talablar**

Sudya odob va axloqning umume'tirof etilgan qoidalariga amal qilishi, har qanday vaziyatda haqiqatparvar bo'lishi, sud hokimiyatining nufuzini tushiradigan va sudyaning obro'-e'tiboriga putur yetkazadigan yoki uning xolisligi, mustaqilligi va beg'arazligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan o'zini tiyishi shart.

Ushbu Kodeksga rioya etish sudyaning qalb amri, hayotining qoidasi bo'lishi, jamiyatning sud tizimiga, odil sudlov malakali, mustaqil, xolis va adolatlari tarzda amalga oshirilayotganligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga ko'maklashishi kerak.

Sudya o'z vakolatlarini amalga oshirishida unga ta'sir o'tkazilganligi to'g'risida xulosa chiqarishga yo'l qo'yadigan hamda sudyaning mustaqilligi va xolisligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan biron-bir harakatlarni sodir etmasligi yoki boshqa shaxslarga shunday harakatlarni sodir etishi uchun imkon yaratib bermasligi zarur.

Sudyada qasamyodga sodiqlik, halollik, qat'iyat, matonat, fahm-farosat va ilmga chanqoqlik kabi xislatlar bo'lishi shart.

Sudya millatlararo totuvlikni qadrlashi, milliy urf-odat va qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi lozim.

Xizmat mavqeini suiiste’mol qilganligi, ko‘rilayotgan ishning yakunidan g‘arazli yoki o‘zgacha tarzda manfaatdor ekanligi haqidagi oshkora ayblovlarga nisbatan sudya tegishli choralar ko‘rishi lozim.

Sudya fikrlash va so‘z erkinligi huquqini amalga oshirishda odil sudlovning obro‘siga putur yetkazmasligi kerak.

### **3-modda. Sudyaning faoliyati doirasi**

Sudyaning odil sudlovni amalga oshirish faoliyati uning boshqa vazifalariga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega.

Sudya Senat a’zosi, deputat bo‘lishi, siyosiy partiyalarga a’zo bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir turdag'i faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Sudya sudyalar hamjamiyati organlarida, jamoat birlashmalarida haq to‘lanmaydigan vazifalarni bajarishi mumkin.

Sudya sud ishlari, arizalar, iltimosnomalar va shikoyatlarni ko‘rib chiqish, shuningdek sud amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish ishlarida ishtirok etadi.

Sudya o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlarga so‘zsiz rioya etishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha’ni, qadr-qimmati va mulkiy manfaatlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashi shart.

### **4-modda. Sudyaning mustaqilligi**

Sudyaning mustaqilligi, uning faqat qonunga bo‘ysunishi, odil sudlov faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi hamda bunday aralashuv uchun javobgarlik belgilanganligi, shuningdek lavozimga tayinlanishi (saylanishi) tartibining mavjudligi orqali kafolatlanadi.

Sudya o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishida har qanday tashqi ta’sirlarning oldini olishi, tahdidlar, bosim va g‘ayriqonuniy ta’sir o‘tkazishga, sud jarayoniga bevosita yoki bilvosita aralashishga qarshilik ko‘rsatishi shart.

Sud ishlarini hal etishga aralashganlik, ishni har tomonlama, to‘la va xolisona o‘rganilishiga to‘sqinlik qilganlik, sudyaga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

### **5-modda. Sudyaning xolisligi va beg‘arazligi**

Sudya kasbiy majburiyatlarini bajarayotganida asossiz shubha va taxminlardan holi bo‘lishi lozim.

Sudya o‘zi, qarindoshlari va boshqa shaxslar uchun biron-bir manfaat, xizmatlar, tijoratga oid yoki boshqa foyda olish maqsadida o‘z maqomidan foydalanmasligi, shaxsiy masalalar yuzasidan turli davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga murojaat qilishda ham o‘z maqomi va xizmat mavqeidan foydalanmasligi kerak.

Sudya odil sudlovnii amalga oshirayotganda sud protsessi barcha ishtirokchilarining protsessual huquqlarini hurmat qilgan holda, har qanday tashqi ta'sirlar, bosim va aralashishlardan qat'i nazar mustaqil harakat qilishi, faqat faktik ma'lumotlar va dalillarni baholashdan kelib chiqishi va ichki ishonchiga hamda qonunchilikka amal qilishi shart.

Sudya, ishdagi taraf yoki manfaatdor shaxsni raddiya yoxud tanqidiy fikr bildirgani uchun ta'qib qilmasligi lozim.

Sudya o'z majburiyatlarini xolisona, sud protsessining barcha ishtirokchilariga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bir xil munosabatda bo'lgan holda bajarishi shart.

Sudya yakuniy sud hujjati qabul qilingunga qadar ish bo'yicha fikrini biron-bir tarzda bildirishga haqli emas.

Adolatli sud muhokamasi odil sudlovnii xolis va beg'araz amalga oshirishning asosiy shartidir.

Sudya sud protsessining barcha ishtirokchilariga nisbatan teng munosabatda bo'lishi shart.

## **6-modda. Sudyaning halolligi**

Sudya vazifalarini vijdonan bajarishi, sabr-qanoatli, toza va pokdomon, o'z nafsining tarbiyachisi, shuningdek o'zi hamda oila a'zolarining halol rizq hisobiga yashashlariga e'tiborli bo'lishi lozim.

Sudya shaxsiy manfaatlari yo'lida xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilmasligi, qarindosh-urug'chilikka, tanish-bilishchilikka, mahalliychilikka, manfaatlari to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi, xizmat yuzasidan biriktirilgan moddiy va nomoddiy manbalardan (resurslardan) shaxsiy, oilasi va boshqalar manfaatida foydalanmasligi shart.

Sudya odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashuv va o'tkazilgan bosimlar, shuningdek muayyan harakatlarni bajarish yoxud bajarmaslik uchun moddiy-nomoddiy shakldagi takliflar haqida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Sudyalar oliv kengashiga yoki sudyalar malaka hay'atiga xabar qilishi lozim.

Sudya boshqa sudyaning ish yurituvadagi ishlarni ko'rib chiqilishiga aralashmasligi kerak.

## **7-modda. Sudyalik layoqati**

Sudya moddiy va protsessual qonun normalarini mukammal bilishi, ularni to'g'ri qo'llay olishi, qonunchilikdagi o'zgarishlarni va sud amaliyotini doimiy o'rGANISHI, o'z bilim hamda malakasini muttazam oshirib borishi shart.

Sudya o'z majburiyatlarini yuqori professional darajada bajarishi, ish o'z vaqtida va malakali ko'rib chiqilishi uchun barcha choralarini ko'rishi lozim.

## **8-modda. Sudyaning maxsus kiyimi**

Sudya odil sudlovnii joriy etilgan namunadagi maxsus kiyim (mantiya)da amalga oshirishi shart.

Sudyaning maxsus kiyimidan boshqa maqsadlarda va boshqa shaxslar tomonidan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.

## **9-modda. Sud raisi va rais o‘rinbosarining rahbarlik faoliyatiga oid talablar**

Sud raisi (o‘rinbosari) o‘zining xolisligi, fidoyiligi va kasbiga sadoqati bo‘yicha boshqalarga o‘rnak bo‘lishi kerak.

Sud raisi (o‘rinbosari) tashkiliy-ma’muriy vakolatlarini amalga oshirishda sudyalarning mustaqilligini cheklovchi xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yishga, ularga bosim o‘tkazishga, shuningdek sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirishga doir faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ma’muriy ta’sirning boshqa usullaridan foydalanishga haqli emas.

Sud raisi (o‘rinbosari) zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda qonuniylikni, sudning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashi, shuningdek sudya va xodimlarning kasbiy bilimlarini oshirib borish choralarini ko‘rishi, shuningdek, sudya yoki xodim egallab turgan lavozimiga nomunosib xatti-harakat sodir etishining oldini olishi, har qanday nojo‘ya harakatga munosabat bildirishi zarur.

Sud raisi (o‘rinbosari) rahnamolikka (asossiz rag‘batlantirish va lavozimini oshirishga), shuningdek beparvolikka (faoliyatdagi kamchiliklari uchun chora ko‘rmaslikka, noqonuniy harakatlariga e’tibor bermaslikka) yo‘l qo‘yilishi mumkin emas.

Sud raisi (o‘rinbosari) sudyalik lavozimlariga nomzodlarga fikrnoma, tavsifnama (tavsiyanoma) tuzishga mas’uliyat bilan yondashishi, xolis va beg‘araz bo‘lishi kerak.

## **10-modda. Sud protsessi ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlar**

Sudya protsessual bo‘lmagan aloqalarni, ya’ni muayyan sud ishi bo‘yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning vakillari, prokuror, advokat, boshqa manfaatdor shaxslar bilan protsessual va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan har qanday muloqotni, agar ushbu harakatlar sudyaning xolisligi va beg‘arazligiga asosli ravishda shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lsa, istisno etishi lozim.

Sudya o‘z majburiyatlarini bajarishi chog‘ida olingan axborotni oshkor etishga haqli emas. Sudya o‘z xizmat mavqeい munosabati bilan o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan sirutiladigan axborotdan sudyalik majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadda foydalanishi yoki uni biror kishiga oshkor qilishi mumkin emas.

## **11-modda. Davlat hokimiysi va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik**

Sudya o‘z faoliyatida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek boshqa jamoat tashkilotlari bilan huquq, qonunchilik, sud tizimi, sud amaliyoti masalalari bo‘yicha o‘z ixtisosligi sohasidagi shaxsiy tajribasi va bilimlariga asoslangan o‘z nuqtai-nazarini bildirish orqali hamkorlik qiladi. Bunda u mansabdor shaxslar tomonidan o‘ziga biron-bir ta’sir ko‘rsatilishiga, shuningdek xolisligi, mustaqilligi va beg‘arazligiga shubhalar tug‘ilishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Sudya davlat organlari faoliyatini omma oldida tanqid qilish, fikr-mulohaza bildirish va baholashdan o‘zini tiyishi zarur.

Agar davlat organlari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tuzilgan turli ishchi guruhlari va komissiyalar ishidagi ishtiroki sudyaning kasbiy majburiyatlarini bajarishga to‘sinqlik qilsa, jamiyatning sud hokimiyati obro‘siga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazsa yoki odil sudlovning xolisligi, mustaqilligi va beg‘arazligiga shubha tug‘dirsa, sudya ular faoliyatida ishtirok etmasligi lozim.

### **12-modda. Ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro munosabatlar**

Sudning ish yurituvida bo‘lgan ishlar bo‘yicha qabul qilingan sud hujjatlari qonuniy kuchga kirgunga qadar sudya ular yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqish qilishga haqli emas.

Sudya ommaviy tanqidga nisbatan vazmin bo‘lishi kerak. Agar ommaviy axborot vositalarida sudyaning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarqalishi natijasida sudlar va sudyalar faoliyati haqida noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lsa, ommaviy axborot vositalarining bunday chiqishlariga nisbatan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan usullarda munosabat bildirish huquqiga ega.

Sudya ijtimoiy tarmoqlarda, internet-forumlarda va internet tarmog‘idagi boshqa shakldagi muloqlarda ishtirok etishi mumkin, biroq u sud hokimiyatining, davlat organlarining nufuziga, boshqa shaxslarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan axborotni tarqatmasligi lozim.

### **13-modda. Sudyaning xizmatdan tashqari vaqttagi odob-axloqiga oid qoidalar**

Sudya xizmatdan tashqari vaqtida jamiyatda umume’tirof etilgan odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya etishi, jamoatchilik bilan munosabatda kamtar va bosiq bo‘lishi, kibrga berilmasligi, sudya ekanligini zaruratsiz bildirishdan tiyilishi lozim.

Sudya siyosiy va diniy mazmunga ega miting va namoyishlar shaklidagi ommaviy tadbirdarda ishtirok etmasligi kerak.

Sudya jamiyatning boshqa ishtirokchilari bilan munosabatda sudning nufuzi, sudyalik sha’niga putur yetkazadigan va sudyaning jamiyatdagi yuksak maqomiga mos kelmaydigan muomala madaniyatidan, shuningdek ko‘ngilochar tadbirdarda ishtirok etishda sudyaning nufuziga dog‘ tushiradigan xatti-harakatlardan o‘zini tiyishi lozim.

Sudya muayyan sud ishi bo‘yicha huquqiy maslahat berishga va o‘z fikrini bildirishga, shuningdek sudda ko‘rilgan yoki sud ish yurituvdagagi ishlarni xizmatdan tashqari holatda muhokama qilishga haqli emas.

### **14-modda. Sudyaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishdagi cheklolvar**

Sudya moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yuritish bilan bog‘liq qonunda belgilangan cheklovlarga qat’iy rioya etishi shart.

Tijorat tashkilotlarining ustav fondlaridagi ulush, shuningdek tijorat tashkilotlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini beradigan qimmatli qog‘ozlar hadya qilingan yoki meros bo‘yicha olingan hollarda, sudya bu haqda O‘zbekiston

Respublikasi Sudyalar oliy kengashiga xabar berishi va ularni boshqarishni darhol boshqalarga topshirish bo'yicha choralar ko'rishi zarur.

Sudya o'zi, turmush o'rtog'i va farzandlari olayotgan daromadlari hamda ularning manbalari to'g'risidagi, mulk huquqi va ashyoviy huquq asosida egaligida bo'lgan mol-mulki, shuningdek mulkiy xususiyatga ega majburiyatları haqidagi axborotdan xabardor bo'lishi shart.

Sudya har qanday mablag'lar yig'ishda ishtirok etmasligi, bunda ishtirok etishga da'vat qilmasligi, shuningdek mazkur maqsadlar uchun sudyalik obro'sidan foydalanmasligi yoki boshqa shaxslar va oila a'zolarining foydalanishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

### **15-modda. Turmushda odob-axloq me'yorlariga rioxaya etish**

Sudya o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida o'z diniy e'tiqodlarini namoyish qilish va targ'ib etishdan o'zini tiyishi shart.

Sudya o'zining tashqi ko'rinishi, kamtarligi va sipoligi bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi lozim. Sudya e'tiborni haddan tashqari jalb etadigan darajada taqinchoqlar va boshqa bezaklar taqmasligi, kiyinmasligi kerak.

Sudya o'z oila a'zolari, qarindoshlari va boshqa shaxslar tomonidan uning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlariga, shuningdek sud hujjatlarini qabul qilishiga ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Sudya, o'z oila a'zolarining umume'tirof etilgan odob-axloq normalariga rioxaya etishiga e'tiborli bo'lishi lozim.

### **16-modda. Kodeks qoidalariga rioxaya etish**

Sudya tomonidan odob qoidalari buzilgan taqdirda boshqa sudyalar unga qoidalarni eslatishi va tartibga chaqirishi kerak. Zarur bo'lganda Kodeks qoidalaring buzilganligi fakti yuzasidan tegishli sudyalar malaka hay'atiga murojaat qilishi lozim.

### **17-modda. Kodeksga rioxaya etilishi ustidan nazorat qilish**

Sudyalar oliy kengashi va tegishli sudyalar malaka hay'atlari ushbu Kodeks qoidalari buzilishining oldini olish yuzasidan choralar ko'radi va ularga rioxaya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

### **18-modda. Kodeks qoidalari buzganlik uchun javobgarlik**

Kodeks qoidalaring buzilishi sud hokimiysi obro'siga putur yetkazgan yoki sudya nomiga dog' tushirgan bo'lsa, bu holat sudyani belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.